

MIRZACHO‘LNING SHIMOLIY G‘ARBIY KARVON YO‘LI SARDOBARLARI.

Mamatov Sharofiddin Musurmonqulovich

GulDU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Mirzacho‘lning shimoliy-g‘arbiy qismidan o‘tgan qadimiy karvon yo‘li bo‘ylab qurilgan sardobalarning tarixiy, me‘moriy va amaliy ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda sardobalarning tuzilishi, ularning karvonlar uchun suv ta‘minoti va dam olish maskani sifatida tutgan roli, shuningdek, ularning joylashuvi va arxeologik holati tahlil qilinadi. Maqolada ushbu inshootlarning Mirzacho‘l hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Mirzacho‘l, karvon yo‘li, sardoba, suv inshootlari, me‘moriy yodgorliklar, savdo marshrutlari, arxeologik tadqiqotlar

Annotation. This article is dedicated to studying the historical, architectural, and practical significance of the sardobas (ancient water reservoirs) built along the northwestern caravan route of the Mirzacho‘l region. It examines the structure of sardobas, their role as sources of water and rest stops for caravans, as well as their geographical distribution and archaeological status. The paper also explores the importance of these facilities in the socio-economic life of the Mirzacho‘l steppe.

Key words. Mirzacho‘l, caravan route, sardoba, water structures, architectural monuments, trade routes, archaeological research

Mirzacho‘lning Shimoliy G‘arbiy karvon yo‘li sardobalari o‘rta asrlar shaharsozlik va suv ta‘minoti tizimining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan muhim inshootlardir. Ushbu sardobalar, o‘sha davrda karvon yo‘llari bo‘ylab harakat qilgan savdogarlar va sayohatchilar uchun zarur bo‘lgan suv ta‘minotini ta‘minlash maqsadida qurilgan. Mirzacho‘lning strategik joylashuvi va uning Buyuk Ipak yo‘lining bir qismi sifatida ahamiyati, bu hududda suv inshootlarini rivojlantirishni talab qildi. Sardobalar faqatgina suv saqlash joylari bo‘lib qolmay, balki mintaqadagi ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Shu tariqa, Mirzacho‘lning Shimoliy G‘arbiy karvon yo‘li sardobalari nafaqat arxitektura yodgorliklari, balki o‘sha davrning suv boshqaruvi va madaniy merosini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Yog‘ochli Sardoba (Xudoysera Sardobasi)

Yog‘ochli Sardoba, shuningdek, Xudoysera Sardobasi deb ham ataluvchi bu tarixiy me‘moriy yodgorlik, O‘zbekistonning Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘ida joylashgan. U Toshkent-Samarqand-Buxoro shaharlari o‘rtasidagi M39 avtomagistral yo‘li yoqasida qad ko‘targan. Bu inshoot Mirzacho‘lda mavjud bo‘lgan uchta sardobadan biri bo‘lib, viloyatda shu turdagi yagona yodgorlik hisoblanadi.

Sardoba o‘rta asrlarda «Xudoysera» nomi bilan mashhur bo‘lgan, bugungi kunda esa unga nisbatan «Yog‘ochli» yoki «Og‘och Sardoba» nomlari ham ishlatiladi. Bu me‘moriy obida XVI asrda Abdullaxon II (1557-1598) davrida bunyod etilgan. Shu bilan birga, rivoyatlarga ko‘ra, uning qurilishi Amir Temur (1370-1405) davri bilan ham bog‘lanadi.

Ushbu tarixiy obida O‘zbekistonning moddiy va madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, davlat muhofazasiga olingan. Shuningdek, Yog‘ochli Sardoba Sirdaryo viloyatidagi to‘rtta asosiy ekoturizm obyektlaridan biri sifatida ham tan olingan.

«Sardoba» so‘zi fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib, «muzdek suv» degan ma‘noni anglatadi. O‘rta asrlarda «Xudoysera» deb atalgan bu sardoba, davlatning rasmiy ro‘yxatlarida «Og‘och» nomi bilan ham qayd etilgan.

O‘zbekiston va uning atrofidagi hududlarda jami 44 ta sardoba mavjud bo‘lib, ularning 29 tasi Qarshi cho‘lida, 3 tasi Mirzacho‘lda, yana 3 tasi Toshkent va Farg‘ona o‘rtasidagi qadimiy savdo yo‘lida, bittasi esa Karmana yaqinidagi Malikcho‘lda joylashgan. Yog‘ochli Sardoba Mirzacho‘lni kesib o‘tuvchi qadimiy karvon yo‘llaridan birining yoqasida barpo etilgan. U hozirgi Jizzax shahridan 35 km shimolda va Mirzasardobadan 30 km janubda, joylashgan.

Mirzacho‘ldagi sardobalar Amir Temur va Abdullaxon II davrlaridagi bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liq holda qurilgan. Yog‘ochli Sardoba ham shu davr me‘morchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. Sardobaning hovuz suvi vaqt o‘tishi bilan sizoq suvlar ko‘tarilib ketgani sababli iste‘molga yaroqsiz holga kelgan.

Yog‘ochli Sardoba bugungi kunda nafaqat tarixiy ahamiyatga ega obida, balki O‘zbekistonning ekoturizm salohiyatini namoyon etuvchi noyob inshoot sifatida ham qadrlanadi.

Yog‘ochli Sardoba haqidagi dastlabki ma’lumotlar Hofiz Tanish al-Buxoriyning *Abdullanoma* asarida uchraydi. Unga ko‘ra, XVI asrda Abdullaxon II Toshkentga harbiy yurishi davomida shu hududda hordiq chiqarish uchun to‘xtaydi va suvsizlikdan aziyat chekayotgan askarlari uchun karvonsaroy hamda sardoba qurilishini buyuradi.

Manbalarga ko‘ra, Yog‘ochli Sardoba XVI asrning ikkinchi yarmida, taxminan 1580-yilda yoki 1585-1590-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Uning qurilishi uchun g‘ishtlar Samarqanddan yoki hozirgi G‘allaorol tumani hududidan olib kelingan. Sardoba qurilishida suv manbalaridan oqib kelgan suvni yig‘ish uchun maxsus irmoqchalar va tarnovlar tizimi ishlatilgan.

Ichki hovuzlarning dastlabki qurilishida ikki hovuz mavjud bo‘lgan. Bu hovuzlarda doimiy ravishda muzday suv saqlanib turgan. Keyinchalik ulardan biri yopilib, faqat bir hovuz saqlanib qolgan. Suv loyqasini tindirish uchun sardoba oldida maxsus tindirgich hovuz qurilgan. Tindirgichda loyqa suv cho‘kib, toza suv sardobaga oqib kirgan.

Tarixchilar yozishicha, sardoba yaqinida karvonsaroy, bog‘-rog‘lar va chorva mollarni sug‘orish uchun maxsus joylar bo‘lgan. Sardobaga kirish qismidagi yo‘lak ustida qo‘riqchilar va xizmatkorlar uchun xonalar mavjud edi. Sovet davrida sardoba ichida quduq qazilib, uning devorlari yog‘och bilan mustahkamlangan.

2.Sardobalarning tuzilishi va ularning karvon yo‘lidagi vazifalari.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, sardobada bir necha marta ta‘mirlash ishlari olib borildi. 2001-yilda sardobaning atrofi o‘ralib, cho‘yan panjaralar va darvozalar o‘rnatildi, kirish yo‘laklariga yassi toshlar yotqizildi. Ayvon qismiga ganchli darvoza qurilib, ichki qismi yoritgichlar bilan jihozlandi. Sardoba atrofida gullar va daraxtlar ekildi.

Biroq keyinchalik rekonstruksiya ishlari to‘xtatilib, sardoba achinarli holatga kela boshladi. 2019-yilda obida xarobaga aylangan, tevarak-atrofi chiqindilarga to‘lib, turistlar uchun sharoit yetarli emas edi. Shunga qaramay, shu yilning o‘zida Yog‘ochli Sardoba O‘zbekiston moddiy va madaniy merosining milliy ro‘yxatiga kiritildi va davlat muhofazasiga olindi.

2021-yilda Sardoba tumani kengashi qaroriga ko‘ra, bu tarixiy obidani turistik marshrutga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Ammo turistlar uchun qulay sharoit yaratish, sardobani to‘liq ta‘mirlash va obod qilish ishlari hali yakuniga yetmagan.

Yog‘ochli Sardoba, o‘zining boy tarixi va noyob me‘moriy yechimlari bilan, O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosida alohida o‘rin egallaydi. Sardobaning tiklanishi va turizm obyektiga aylanishi nafaqat uning tarixiy ahamiyatini qayta ochib beradi, balki mintaqaviy iqtisodiyot va turizm rivojiga ham xizmat qiladi.

Yog‘ochli Sardoba kvadrat shaklda to‘silgan bo‘lib, tomonlari 75 metrni tashkil etadi va umumiy maydoni 5625 kvadrat metrga teng. Ikki yon va orqa tomoni 3 metr balandlikdagi beton to‘siqlar bilan o‘ralgan, old qismi esa cho‘yan bezakli panjaralar bilan o‘ralgan. Sardobaning markazida asosiy tarixiy inshoot joylashgan.

Yog‘ochli sardoba hovuzi o‘rnida XX asrda qurilgan va atrofi yog‘och bilan o‘ralgan quduq.



Tarixiy inshootning diametri 27 metr bo‘lib, umumiy balandligi 8 metrni tashkil qiladi. Inshootning shimoliy tomonida, kirish qismining oldida, 5 metr uzunlik va 3 metr balandlikdagi ayvon qurilgan. Kirish darvozasi eni 3 metr, balandligi esa 2,8 metr bo‘lib, arksimon shaklda ishlangan. Darvozadan ichkariga g‘ishtli zinapoyalar orqali kiriladi.

Ichki hovuzning o‘lchamlari tarixan chuqurligi 10-15 metr, diametri esa 12-16 metr bo‘lgan. Ushbu hovuz XX asrda o‘rniga yog‘och bilan o‘ralgan quduq qazilgan. Sardoba ichida joylashgan hovuzning vazifasi suvni yig‘ish va saqlash bo‘lib, suv tindirgich orqali kirib kelgan.

Inshootning g‘ishtlari kvadrat shaklda ishlangan va o‘lchami 25-27 sm², qalinligi esa 5-5,5 sm bo‘lgan. Devorning qalinligi quyi qismida 1,5 metrni tashkil qilsa, yuqoriga ko‘tarilgan sari yupqalashib, eng yuqori qismida bir g‘isht qalinligida bo‘lgan.

Gumbazning ichki diametri 15 metr, balandligi esa 12 metrni tashkil etadi. Havoning yangilanishi va ichki qismni salqin tutish uchun gumbazning uch tomonida, yerdan 2 metr balandlikda, bir nechta ravoqsimon ventilyatsion tuynuklar, shuningdek, yuqorisida mo‘ri o‘rnatilgan. Ushbu tuynuklar orqali havoni yangilash imkoniyati yaratilgan.

Yog‘ochli Sardobaning qurilishi haqida qiziqarli rivoyatlar mavjud. Ulardan biriga ko‘ra, bu sardoba Amir Temur buyrug‘i bilan bunyod etilgan. Qurilish materiallari,

jumladan g‘ishtlar, Samarqanddan inson zanjiri orqali qo‘lma-qo‘l tashib keltirilgan. Hovuzni to‘ldirish uchun esa Sirdaryodan suv olib keluvchi O‘rinboyariq tashlamasi ishlatilgan.

Yog‘ochli Sardoba faqatgina me‘moriy inshoot emas, balki o‘z davridagi ilg‘or muhandislik yechimlarining yodgorligidir. Suvni yig‘ish, saqlash va salqin muhit yaratish uchun maxsus tizimlar bilan jihozlangan ushbu sardoba O‘zbekistonning tarixiy merosida muhim o‘rin egallaydi. Inshoot atrofida saqlangan rivoyatlar esa uning tarixiy va madaniy ahamiyatini yanada oshiradi.

3.Sardobalar atrofida urbanizatsiya va ijtimoiy hayot.

XVI asr boshida temuriylarga tegishli yerlarni zabt etish natijasida Shayboniylar davlati vujudga keladi. Dastlabki paytlarda Shayboniylar davlati ancha keng hududni qamrab olgan edi. Movarounnahr uning o‘zagini tashkil qilardi. Bundan tashqari uning tarkibiga Xorazm, Sirdaryo sohilidagi shaharlar, Toshkent va uning atrofidagi tumanlar, butun Farg‘ona vohasi, hozirgi Turkmanistonning Marv shahrigacha bo‘lgan janubiy tumanlari kirar edi. Mashhad va Astrobodni o‘z ichiga oluvchi Xuroson, shuningdek viloyatning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallovchi Hirot ham bir oz vaqt Shayboniylar davlati tarkibiga kirgan. Balx va uning atrofidagi yerlar Shayboniylarga yarim qaram holatda edi. Shayboniylar tarqoq mayda mulklarni o‘z hokimiyati ostida birlashtirib, qisqa vaqt ichida siyosiy hokimiyatni markazlashtirishga erishdi. Shayboniylarning vafotidan keyin u boshlagan ishni Ubaydulla sulton va Abdullaxon II lar davom ettirishdi.

Shayboniylar davrida qurilish tizmiga katta e‘tibor berilgan. Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun‘iy sug‘orish bilan bog‘liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e‘tibor bilan qaratilgan. Bu sulola vakillari Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg‘ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko‘rganlar. Shayboniylar avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati erlarini sug‘orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar. Sun‘iy sug‘orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556-1585 yillar oralig‘ida Zarafshon daryosida Karmana, Chahorminor, Mehtar Qosim, Jondor suv ayirg‘ichlari; Nurota tog‘ida Oqchob, Murg‘ob vohasida Hovuzixon suv omborlari qurilgan. Bundan tashqari, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan Xoja Ka‘ab kanali, Afshona kanali, Amudaryodan Chorjo‘yga, Murg‘obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.

Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo‘llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta‘mirlashga ahamiyat berdi. 1577-yilda Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi Abdullaxon timi qurildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy

darasida joylashgan qadimgi to‘g‘on qoldiqlari o‘mida ulkan band qurdirdi. Abdullaxon bandi uning ravoqlarini to‘g‘on tepasida turib ochishi yoki berkitishi mumkin edi.

Abdullaxon bandi XVI asrning 80-yillarida qurilgan qadimgi suv ombori hisoblanadi. Bu inshoot qoldiqlari Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgacha saqlangan band hisoblanadi. Bu band slantes toshlardan qurilib, tosh palaxsalarisuvga chidamli maxsus ganch qorishmasi qiri bilan biriktirlgan. To‘g‘oning uz asosida 73m, yuqorisida 85 m, balandligi 14,5 m. Bunda suv bosimi hamda uning ag‘daruvchi kuchi hisobga olingan holda to‘g‘on asosining qalinligi 15,3 m, ustki qismi 4,5 m qilib zinapoya shaklida qurilgan. To‘g‘on oldida hosil bo‘lgan suv omborining uzunligi 1,5 km, eni 75-125 m. Abdullaxon bandiga taxminan 1,2 mln kubometr suv jamlangan inshootdan quyida joy-lashgan Kamar, Oqchob, O‘rganjiy, Ravot, Jilontamgali va Soykechar qishloqlariatrofi sug‘orilib obod etilgan. Maqsad esa o‘sha atrofdagi bo‘z yerlami sug‘orib, dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi.

Abdullaxon II tomonidan olib borilgan urushlar natijasida markazlashgan davlat barpo etish mustahkamlandi. 1557-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Abdullaxon harbiy yurishlar band bo‘lganligi sababli 1561-yildan otasi Iskandarni xon deb e‘lon qiladi. 1573-yilda Balxni, 1574-yilda Hisorni, Shahrisabz va Qarshini, 1578-yilda Samarqandni egallaydi. 1582-yilda Toshkentni o‘ziga buysundiradi. Shundan keyin uning davlati sarhadlari janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orolgacha, Kaspiy dengizidan Issiqko‘lgacha yetdi. Butun Movarounnahr, Xorazm va Xuroson yana yagona hukmdor qo‘li ostida birlashtirildi. XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi. 1583-yildangina (otasi vafot etgach) rasman xon deb e‘lon qilinib, 1596-yilda vafot etgungacha boshqaradi.

Ayniqsa, XVI asrning ikkinchi yarmida Shayboniy Abdullaxon II tomonidan ko‘plab sardobalar kurilgan edi. Ular ichida Qorovulbozordagi sardoba Buzachi sardobasi, Begichak sardoba, Yakka sardoba, Kaspidagi sardoba, Qarshidan Amudaryodagi kechuvlarga olib boruvchi yo‘llardagi sardobalar, Jizzax-Chinoz oraligidagi cho‘l hududida joylashgan sardobalar bunga misoldir.

Bugungi kunda sardobaning faqat arkasimon qilib qurilgan kirish joyi buzilib ketgan bo‘lib, gumbazida (d-6,5 m) asosiy kirish joyidan tashqari 9 ta deraza, tepasida ventnlatsiya maqsgdiga xizmat qilgan doirasimon teshik (d-80) mavjud. Xovuzni (4-16 m.) qishda va erta bahorda qor va yomg‘ir suvlari bilan tuldirilib kelinmoqda. Bu sardoba XVI–XX asr boshlarida Qoravulbozor orqali o‘tgan savdo karvonlari, harbiy otryadlar, yo‘lovchilar va cho‘ponlarni suv bilan ta‘minlashta xizmat qilib qilgan. 1993-1994 yillardagi ilmiy ekspeditsiya davrida bu yerdagi sardoba ko‘zdan kechirildi, gumbazida (h-5 m.) 3 ta deraza va kirish joyi bo‘lganligi, xovuzi esa (d-13 m.) butunlay ko‘mib yuborilganligi aniqlandi.

2004-yildagi yer tekislash ishlari paytida bu yerda yana ikkita sardoba borligi aniqlandi. 2006-yil avgust oyidagi maxsus ilmiy safar davrida bu sardobalarni ko‘rishga muvaffaq bo‘lindi. Bu sardobalarning hozirda faqat ustki qismlari ochilgan. Sardobalar gumbazi tepasidagi maxsus teshik orqali sardobalar hovuzida suv borligini ko‘rish mumkin. Shundan kelib chiqib, bu inshootlar usti gumbaz bilan yopilgan quduqlar bo‘lish ham mumkin. Bu inshootlar to‘la ochilmaganligi sababli ularning me‘moriy kurilish uslubi va barpo etilgan davri haqida aniq ma‘lumot berish qiyin. Agar bu yerdagi Abdullaxon II davrida barpo etilgan sardoba joylashishidan kelib chiqsak, yangi ochilgan sardobalar (yoki usta gumbaz bilan yopilgan quduqlar) Amir Temur va temuriylar davrida ehtimol undan oldinroq davrlarda, masalan, O‘rta Osiyo janubiy hududlari orqali o‘tgan savdo aloqalarida Kaspining o‘rni kuchaygan XVII asrlarda barpo etilgan bo‘lishi mumkin.

XIX asr rus harbiylari hisobotlarida Qarshi va Nishon oralig‘idagi masofa 27 verst deb qayd etiladi. Eski Nishonda Abdullaxon II tomonidan sardoba va rabot kurilgan bo‘lib, mo‘jor sayyohi A.Vamberi XIX asrning 60-yillarida bu erdan o‘tganda rabot vayrona holda edi. Sardoba esa, to‘plangan ma‘lumotlarga ko‘ra, XX asrning 60-yillarida butunlay buzib tashlangan bo‘lib, uning xarobalari Eski Nishon qishlog‘idan 3-4 km.cha janubi-sharqda joylashgan. Bu yo‘nalishdagi keyingi bekat bo‘lgan usti ochiq sardoba mahalliy cho‘ponlardan olgan ma‘lumotimizga ko‘ra hozirgi paytda Tallimarjon suv ombori tagida qolib ketgan. Bu yo‘nalishdagi keyingi manzil, Qarshi–Kerki yo‘lidagi eng yirik inshoot bo‘lgan Sangir Suvloq sardobasi Turkmanistondagi eski Tallimarjon qishlog‘ining janubi-sharqiy kismida joylashgan.

Bu sardobadan mahalliy aholi hozirgi kungacha chorva mollarini sug‘orishda foydalanib kelayotgashshgi bois bizgacha yaxshi ahvolda yetib kelgan. Bu sardobaning Xurosondan Movarounnahrda o‘tuvchi karvon yo‘lida joylashganligi haqida uni o‘z k o‘zi bilan ko‘rgan A.Vamberi ham ma‘lumot qoldirgan. XIX asr oxirida bu sardoba yonida Kerki begi buyrug‘i bilan karvonsaroy barpo etilgan bo‘lib, u bizning davrimizgacha etib kelmagan. Sangir Suvloq, sardobasida Qarshidan keluvchi yo‘l ikkiga ajralib, birinchi yo‘nalish Qirquduq orqali Kerkiga, ikkinchisi Butosh sardobasi va Yo‘lgunogiz orqali Kelif kechuviga olib borgan. O‘rta Osiyo tarixiga nazar tashlab, ajdodlarimizning qadimdan murakkab suv inshootlarini tarxini tuzganliklari va qurib ulardan asrlar davomida foydalanganliklarini sardobalar misolida ko‘rib chiqdi.

Sardobalar suv tanqis hududlarda uni to‘plash va saqlash uchun maxsus gumbaz ko‘rinishida murakkab tarx asosida qurilgan suv inshootidir. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra Movarounnahrda 44 ta sardoba bo‘lib, ulardan 29 tasi Qarshi cho‘lida, 3 tasi Mirzacho‘lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg‘ona o‘rtsidagi qadimgi savdo yo‘lida, 1 tasi Karmana yaqinida – Cho‘li Malikda qurilgan. Sardobalarning O‘rta Osiyo bo‘ylab hududiy tarqalishini ikkita

muhim jihatni hisobga olinganligiga duch kelamiz. Birinchidan, ular yirik suv manbalaridan yiroq maydonlarda qurilgan bo‘lsa, ikkinchidan bu tizimni tutashtiruvchi egri chiziq yirik karvon yo‘llari va karvonsaroylar oldida qurilgan. O‘rta asrlarga oid manbalarda sardobalar har uch tosh (24 chaqirim) da bunyod etilganligi haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

4. Mirzacho‘l sardobalarining tarixiy merosi va hozirgi holati.

Sardobalar Markaziy Osiyoning quruq va issiq iqlim sharoitida aholi uchun suv ta’minotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan inshootlardir. Mirzacho‘l hududidagi sardobalar ham ko‘hna tarixning bir bo‘lagi sifatida ahamiyatli bo‘lib, ular savdo yo‘llarining rivojlanishida va odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Ushbu 4-asosiy savolda Mirzacho‘l sardobalarining tarixiy merosi va bugungi kundagi holati haqida ma’lumot beriladi.

Mirzacho‘l qadimdan Buyuk Ipak yo‘li chorrahalaridan biri sifatida tanilgan. Bu mintaqa orqali o‘tuvchi savdo yo‘llari karvonlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ular suv ta’minoti masalasida sardobalarga tayanishgan. Sardobalar asosan XIV-XVI asrlarda, Temuriylar va Shayboniylar davrida ko‘proq qurilgan. Ularning ayrimlari esa ilgariroq, Qoraxoniylar yoki hatto Kushonlar davriga borib taqaladi.

Sardobalar loydan, pishiq g‘ishtdan qurilgan va maxsus gumbazli shaklga ega bo‘lib, suvni uzoq muddat saqlash imkonini bergan. Bu inshootlar mintaqada o‘troq va ko‘chmanchi madaniyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida alohida rol o‘ynagan. Mirzacho‘l sardobalari nafaqat suv resurslarini boshqarishning yuksak namunasi, balki o‘sha davr me’morchiligining betakror asarlaridir.

Bugungi kunda Mirzacho‘l hududidagi sardobalarning aksariyati yaroqsiz holatga kelib qolgan yoki qisman saqlangan. Ayrim sardobalar rekonstruksiya qilinib, tarixiy meros sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ko‘plari e’tiborsizlik sababli yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Sardobalarning yomonlashishiga tabiiy sharoitlar, jumladan, tuproq eroziyasi, shamol va yomg‘irlarning ta’siri katta bo‘ldi.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda sardobalarni qayta tiklash va ular asosida turistik marshrutlar tashkil etish borasida bir qator sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, asosan, Mirzacho‘lning tarixiy qiyofasini tiklash va hududning turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan. Sardobalar joylashgan hududlar qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojlanishi natijasida shahar va qishloq infratuzilmasining bir qismi sifatida qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Mirzacho‘l sardobalari Markaziy Osiyoning boy tarixiy merosining bir qismi bo‘lib, ular suv ta’minoti tizimi va savdo yo‘llarining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ularning tarixiy ahamiyatini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida sardobalarni qayta

tiklash va ularni turizm sohasida foydalanish orqali Mirzacho‘lning madaniy-tarixiy salohiyati yanada kengroq ochib berilishi mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.
2. Кудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.
3. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.
4. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.
5. Davron O‘g‘li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.
6. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.
7. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.
8. Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.
9. Davron o‘g‘li, A. D. (2025). O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O‘RGANILISHI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.
10. Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.
11. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

12.Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

13.Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

14.Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

15.Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африкийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

16.Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

17.OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

18.Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

19.Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.

20.Ne'matov, R. (2023). ILK O 'RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.

21.Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

22.Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.

23.Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

24.Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.

25.BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

26. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, (3 (18)), 151, 312.

27. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

28. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАҒАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

29. Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.

30. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO'CHMANCHILIK FENOMENINING O'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

31. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

32. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).

33. Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).

34. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO'LNI O'ZLASHTIRISH VA KO'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

35. Galiyev, S. (2024, September). O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

36. Galiyev, S. (2024). O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O'RGANILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.

37. Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.

38. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

39. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.

40. Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.

41. Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.

42. Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

43. Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.

44. Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.

45. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.

46. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

47. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.

48. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.

49. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

50. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

51. Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.

52. Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.

53. Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.

54. Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.

55. Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.

56. Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.

57. Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.

58. Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.

59. Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).